

ANOR (PUNICA GRANATUM L.) NING NAVLARI VA KO'PAYTIRILISHI

Abduraxmonova Gavhar Jumanazar qizi

Tosh DAU Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Anorning xar hil navlari bor ular bir biridan mevasining ta'mi, rangi, tarkibi, o'simligining tashqi ko'rinishidagi katta kichikligi, tikanlarining bor yoki yo'qligi va boshqa xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi. Qolaversa navlardagi farqlar ularning pishib yetilishi bilan ham farqlilik mavjuddir.

Kalit so'zlar: barg, gul, changchi, nav, sharbat, hosildorlik, qalamcha, ko'chat, meva, ta'm, yetishtirish.

Аннотация: Существуют разные сорта граната, они отличаются друг от друга вкусом, цветом, составом плодов, размером растения, наличием или отсутствием шипов и другими характеристиками. Кроме того, существуют различия сортов по срокам их созревания.

Ключевые слова: лист, цветок, опылитель, сорт, сок, урожайность, черенкование, рассада, плоды, вкус, выращивание.

Annotation: There are different varieties of pomegranate they differ from each other in the taste, color, composition of the fruit, the large small size of the plant in its appearance, the presence or absence of thorns and other features. Moreover, in related varieties also have differences in their maturation.

Keywords: leaf, flower, pollinator, variety, juice, yield, stem, seedling, fruit, taste, cultivation

Kirish. Oddiy anor – *Punica granatum*, Anordoshlar – *Punicaceae* oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 1,5-5 m keladigan buta yoki kichik daraxt. Barglari ellipssimon yoki teskari tuxumsimon, qalin, yaltiroq bo'lib, kalta bandi yordamida poyada va shoxlarida qarama-qarshi joylashgan, mayda, nashtarsimon, shoxlari tikanlik (shirin mevalisi kam tikanli). Mevasi – yirik sharsimon, ko'purug'li, sersuv soxta meva. Mevasi dumaloq, qizg'ish (qizil po'stli) yoki oqish (oq po'stli) bo'lib, og'irligi 250 -1000 g keladi.

Ta'mi shirin, chuchuk-nordon va nordon, sersharbat (40-55%), tarkibida 14-21% qand, 0,9-3% kislota bor. Mevasi 6-12 xonali, doni och pushti yoki to'q qizil. Urug'lari to'q qizil, och qizil, pushti yoki oq rangli, sersuv, shirin yoki nordon mazali et bilan o'ralgan (Xolmatov, Xarlamov, 1981). Anor gullari ikki turda bo'ladi: Germofrodit- meva hosil qiluvchi yaxshi rivojlangan urug'don va gul naychasiga ega gul. Erkak gul- ko'plab shakllangan gul changlari bo'ladi, lekin



urug‘doni yaxshi rivojlanmaydi. Anorning gullovchi navlari erkak va germofrodit gullar hosil qiladi. Meva hosil qiluvchi gullar Germofrodit gullar deb yuritiladi. Odatda uning ichi to‘liq, asos qismi dumaloq va umumiy shakli ko‘za yoki vazaga o‘hshab ketadi. Meva hosil qilmaydigan erkak gul kichikroq va torroq qo‘ng‘iroq shaklida bo‘ladi. Daraxtning meva berish imkoniyati undagi germofrodit gullar soni bilan belgilanadi. Shu sababdan, ko‘proq erkagiga nisbatan germofrodit gullar hosil qiluvchi navlar, hosildorligi yuqori navlar deb yuritilishi mumkin.

RAYONLASHTIRILGAN ANOR NAVLARI

Anor navlari. **Qizil anor**— po‘sti to‘q qizil yoki qnzil, mahalliy nav. Mevasi o‘rtacha, yirik. Doni to‘q qizil, yirik, po‘sti yupqa, undan 50 — 55 protsent sharbat chiqadi. Mazasi yaxshi, nordon-shirin, bir tupidan 30—35 kg gacha hosil olinadi. Asosan O‘zbekistonda ko‘p tarqalgan (XVI rangli rasm, I).

Qozoqi anor —mevasi o‘rtachadan yirikroq (300-400 g), kumush rang sariq. Sharbati to‘q qizil, mazasi nordon-shirin. Mevasi-dan 40 — 45 protsent sharbat chiqadi. Oktyabrda pishadi, 6—7 oy saqlanadi. Serhosil, har tupidan 40 kg gacha hosil olinadi, (XVI rangli rasm, 2).

Qayim anori— mevasi o‘rtacha yirik (200-250 g),; ,do‘sti ko‘kish qizil, mevasi nordonshirin, sharbati to‘q qizil bo‘ladi. Sentyabrning oxiri — oktyabriing boshida pishadi.

Oq dona (tuya tish)—mevasi yassi yumaloq, yirik, o‘rtacha vazii 300-350 g keladi, sentyabr oxirida pishadi. Doni yirik, po‘sti yupqa, qattiq pishganda mevasiniig rangi och sariq yoki oqish qizil bo‘ladi. Sharbati och pushti, xushbo‘y, shirin, tarkibida 14 foizgacha shakar va 0,5 foizgacha kislota bor. 2 oygacha saqlanadi. O‘zbekistonning deyarli barcha oblastlarida ekish uchun rayonlashtirilgan.

Achchiq dona— Toshkent, Andijon va Surxondaryo viloyatlarining ayrim rayonlarida standartga kiritilgan. Serhosil, mevasi oktyabr oyida pishadi, yassi-yumaloq, yirik, o‘rtacha vazni 300-400 g keladi, po‘sti qalin, mevasi pishganda bir tekis qizil bo‘ladi. Doni va sharbati qizil. Mazasi nordon-shirin. Sharbati tarkibida 15 protsent shakar, 2,5 kislota bor, mevasini 2—3 oygacha saqlash mumkin.

Bedona —meva po‘sti asosan sarg‘ish bo‘lib, sharbati och pushti, shirin. Sentyabr oxirida pishadi. Mevasi tashishga va saqlashga chidamli. Mevasi tarkibida limon kislota ko‘p bo‘ladi.

O‘lfi—Kitob rayonida ekiladigan eng asosiy nav. Boshqa joylarda kam uchraydi. Har tupidan o‘rta hisobda 20—25 kg gacha hosil olinadi. Mevasi sentyabr oyining oxiri noyabrning boshlarida pishadi, yumaloq, yirik, o‘rtacha vazni 250—300 g,



qobig'i o'rtacha qalin. Rangi sariq, nursiz malina rangda. Doni o'rtacha yirik, sharbati och pushti, shirin, bir oz nordon, tarkibida 14—15-foiz qand, 0,5—0,6 protsent kislota bor. Tashishga chidamli, o'rtacha 3—4 oy saqlanadi.

Bola mursal — Ozarbayjondagi eng yaxshi standart navlardan biri bo'lib, O'zbekistonning janubiy rayonlarida ekish uchun tavsiya etiladi. O'zbekistonda har bir tupidan o'rtacha 20—25 kg dan, serhosil tuplaridan esa 50—60 kg dan hosil olinadi. Mevasi oktyabrda pishadi, uzunchoq-yumaloq, bir tekis. Po'sti o'rtacha qalinlikda, yumshoq. Rangi bir tekis to'q malina tusda. Mevasining o'rtacha vazni 200—250 g, ba'zilar 600 g ga etadi. Doni va sharbati malina tusda, yoqimli nordon-shirin mazali, tarkibida 15—16 protsent shakar va 1,5 — 1,6 protsent kislota bor. Tashishga o'rtacha chidamli, 3—4 oygacha saqlanadi.

Pushti Gulosha — Ozarbayjondagi eng yaxshi standart navlardan biri, O'zbekistonda har tupdan o'rtacha 20 — 25 kg dan hosil olinadi. Mevasi oktyabr oyida pishadi, o'rtacha yirik, vazni 200—250 g, ba'zilar 700 g keladi, rangi malina va pushti tusda, bir tekis, bir oz yoqimli. Tarkibida 15—16 foiz qand va 1,2 —1,3 protsent kislota bor. Tashishga chidamsiz 3 — 4 oygacha saqlanadi.

Yetishtirish : Har qanday anor navi asosan, qalamchadan ko'paytiriladi. Unumdor qumoq, nami yetarli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli, lekin namsevar. Yerning unumdorligiga qarab, ko'chat oralig'i 4x4 va 5x4, tomorqalarda 3x3 m qilib ekiladi. Vegetatsiya davri 180–215 kun. Anor – chetdan changlanadigan o'simlik, lekin o'z o'zidan ham changlana oladi. o'z o'zidan changlanganda yaxshi hosil berganligidan, anorzor bog'larga har xil nav ko'chatlar ekish lozim. Bunda ko'chatlar qatorlarga navbatlab ekiladi. Martning oxiri –aprelning boshlari anor ko'chatlari ekish uchun eng yaxshi vaqt hisoblanadi. Bu vaqtda o'tkazilgan anor daraxtining o'q tomiri kuchli, mayda tomirlari serob bo'ladi. Ko'chat o'tkaziladigan o'ralarning chuqurligi 60 sm, kengligi esa 75 sm bo'lishi lozim. o'simliklar 50 – 60 sm balanlikda, 4 – 5 ta shox qoldirib, uzunligining 2 dan 3 qismi butab qisqartiriladi. Ko'chatlar o'tqazilib bo'lgandan keyin, 15 – 20 sm do'nglikda ko'mma chopiq qilinadi. Ko'chatlar atrofi bo'ylab taqa shaklida ariqcha olinadi, u qator bo'ylab o'simlikdan 60 – 80 sm naridan o'tadigan sug'orish egati bilan tutashadi. Ko'chatlar o'tqazilib egatlar hamda ariqchalar olib bo'lingandan keyin bog' birinchi marta sug'oriladi. Bunda yerning namligiga ahamiyat berilmaydi. Sug'orilgandan 2 – 3 kun keyin ko'chatlar to'g'rilab qo'yiladi va zarur bo'lsa, ular atrofiga tuproq bosiladi. Ikkinchi sug'orishdan keyin do'ngliklar tekislab yuboriladi.



Xulosa Har bir anor navining yetishtirish texnikasi va o‘z uslubi mavjuddir. Yuqorida takitlanganidek navlar bir biridan ham fiziologik ham morfoogik tarafdin farq qiladi. Anor o‘simligi xalqimiz tarafdin doim sevib istemol qilinib kelinmoqda va shifbaxshliligi bilan ham ajralib turadi. Uning barcha navlaring yetishtirish texnologiyasi deyarli bir xil shu sababli agrotexnikasidagi ishlar bir xi usulda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 noyabrdagi «Farmasevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5229-son Farmoni.
- 2 Matkarimov va Sabirovlar tamonidan qoraqalpoq tilida nashr qilingan «Miyue bag`larinin` agrotexnikasi. N.: «qaraqalpaqstan». 1984.-316 b. nomli monografiyada
3. Yusupov «Anorni yashil qalamchadan ko`paytirish» Maqola 1981 yil
4. Xalmatov, Xarlamovlar (1981) Lechevnie svoystva pishevix rasteniy.-T.: Meditsina, 1981,-71 s.
5. Nabiyev.M va boshq. „ Qiziqarli botanika” T: O‘zbekiston, 1975- 231 bet.
6. Lavrenov.V.K, Lavrenova G.V, Sovremennaya entsiklopedya lekarstvennix rasteniy. 2006 yil 272str.

